



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS: 2 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASIDA AKTUAR HISOBLARNI QULLASH VA RIVOSHLANTIRISH MASALALARI <i>Nurullaev Abdulaziz Sirojiddinovich</i>	5
2.	SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA XORIJ TAJRIBASI <i>Nosirov Jasur Tursunpulotovich</i>	9
3.	ESG TAMOYILLARI ASOSIDA SUG'URTA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Yusupov Akbar Haydarovich</i>	14
4.	SUG'URTA SOHASIDA INNOVATSION MARKETING VA RAQAMLI REKLAMA STRATEGIYALARINI JORIY ETISH YO'NALISHLARI <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	18
5.	MIJOZLAR QAMROVINI OSHIRISH UCHUN SUG'URTA KOMPANIYALARIDA TIZIMLI MARKETING STRATEGIYALARINI AMALGA OSHIRISH <i>Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	21
6.	O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING HOLATI: MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	25
7.	PENSIYA SUG'URTASINI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING ZARURIYATI VA DOLZARBLIGI <i>Yo'ldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	28
8.	BANK XIZMATLARINI SUG'URTALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	30
9.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA KOMPANIYALARNING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI <i>Iminova Nurjahon Qodirjon qizi</i>	34
10.	QISHLOQ XO'JALIGIDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH <i>Djumayev Jonibek O'rinovich</i>	38
11.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕРЕСТРАХОВОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ СТРАХОВОГО СЕКТОРА <i>Муминова Ансора Улдузбек кизи</i>	42
12.	СОВРЕМЕННЫЕ ДРАЙВЕРЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Зохидова Диёра Улдузбек кизи</i>	45
13.	O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI <i>Madiyev Abbas Nosirovich</i>	50
14.	QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNI ILMIY TASNIFLASH METODOLOGIYASI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	53
15.	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TASHKILOTLARI TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	56
16.	KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNING AHAMIYATI <i>Muratova Saodat Igamnazar qizi</i>	59
17.	TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI <i>E.I.Ergashev, Qarayev Anvar Botirovich</i>	63
18.	O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI <i>Kuldashev Jahongir Qamariddinovich</i>	67
19.	BANK TIZIMI BARQARORLIGI IQTISODIY RIVOJLANISH GAROVIDIR <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	71
20.	MILLIY IQTISODIYOTNI KREDITLASHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	73
21.	A SYSTEM OF INDICATORS FOR ENSURING THE ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS UNDER INCREASING SYSTEMIC RISK <i>Malikova Dilrabo Muminovna</i>	76

22.	IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANISHDA HUDUDIY MARKETINGNING FUNKSIONAL O'RNI VA AHAMIYATI <i>Mukhammadieva Nodira</i>	79
23.	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INSON RESURSLARIGA QILINGAN XARAJATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI <i>Usmanova Nigina Marupovna</i>	84
24.	НАЛОГОВАЯ РЕФОРМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР РОСТА СПРОСА НА УСЛУГИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА СРЕДИ МАЛОГО БИЗНЕСА <i>Холбеков Расул Олимович</i>	88
25.	O'ZBEKISTON TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI: IQTISODIY TA'SIRLAR, INSON KAPITALI VA REINTEGRATSIYA MUAMMOLARI <i>Ismatova Shoxsanam Abdulaziz qizi</i>	92
26.	O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI <i>Berdibayev Fayzulla Zaripbayevich</i>	95
27.	ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR UZOQ VAQT BARQAROR FOYDA KELISHI KAFOLATI <i>Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich</i>	98
28.	SUG'URTA KAPITALIDAN INVESTITSIYA SIFATIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA BAHOLASH (DEA MODELI ASOSIDA) YO'LLARI <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	101
29.	RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI INDIVIDUAL SPORTCHILARNI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI TAHLILI <i>Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li</i>	105
30.	TOSHKENT SHAHRIDA ANHOR KANALI BO'YLAB OSMA KABINALI JAMOAT TRANSPORT TIZIMINI YARATISH KONSEPSIYASI <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Kamolidinov Muhibillo Shokirjon o'g'li</i>	109
31.	SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRARISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNI ME'YORLASHTIRISHNING USLUBIY JIHLTLARI <i>Ergashev Abrorbek Raxmatulla o'g'li</i>	112
32.	METROLOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY JIHLTLARI <i>Rakhmatillaev Nodirjon Yo'ldashvaevich</i>	114
33.	AN INTEGRATED RISK-BASED MODEL FOR ASSESSING THE EXTERNAL ENVIRONMENT OF SMALL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: IMPLICATIONS FOR THE INSURANCE MARKET <i>Djumabayeva Dilobar Asatillayevna</i>	116
34.	UY-JOY NARXLARINI HISOBLASHDA HEDONIK REGRESSIYA FORMULASIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI <i>Tog'ayeva Dildora Akramovna</i>	120
35.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ КЛАССИЧЕСКИХ И СОВРЕМЕННЫХ ПРИНЦИПОВ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ <i>Ахоров Зариф Орипович</i>	123
36.	RAQAMLI SOLIQ TIZIMLARINI JORIY ETISH VA ULARNING IQTISODIY TA'SIRI <i>Tuychiyev Sherxon Shuxrat o'g'li, Xubbimov Sherzod Jamshidovich</i>	126
37.	SOLIQQA TORTISHNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLILLAR ASOSIDA <i>Toshnazarova Lola Shuxratillayevna, Karimov Mardon Akram o'g'li</i>	129
38.	TURIZMDA INNOVATSIYALARNING HAYOTIYLIK SIKLI VA ULARNING BOZORGA CHIQRISH BOSQICHLARI <i>Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi</i>	133
39.	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH <i>Xalimov Shaxboz Xalimovich</i>	136

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TASHKILOTLARI TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Xattabov Murodulla Batirovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Sug'urta ishi kafedrasida
mustaqil izlanuvchisi
Email: xattabov@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada sug'urta tashkilotlari to'lov qobiliyatining ta'minlashning ilmiy-amaliy asoslari yoritib berilgan. Sug'urta tashkilotlari to'lov qobiliyatini ta'minlash mexanizmlari bo'yicha ilmiy va amaliy yangiliklar ishlab chiqilgan hamda uni amaliyotga joriy etish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: sug'urtalovchi, sug'urtalanuvchi, potensial sug'urtalanuvchi, sug'urtalovchining investitsiya faoliyati, sug'urtalovchining moliyaviy resurslari.

Abstract: The article covers the scientific and practical foundations of the provision of solvency of insurance organizations. Scientific and practical innovations have been developed on the mechanisms of ensuring the solvency of insurance organizations, and proposals and recommendations have been made on its introduction into practice.

Keywords: insurer, policyholder, potential policyholder, investment activity of the insurer, financial resources of the insurer.

Абстрактный: В статье освещены научно-практические основы обеспечения платежеспособности страховых организаций. Разработаны научные и практические новшества по механизмам обеспечения платежеспособности страховых организаций и даны предложения и рекомендации по их внедрению в практику.

Ключевые слова: страховщик, страхователь, потенциальный страхователь, инвестиционная деятельность страховщика, финансовые ресурсы страховщика.

Kirish (Введение/Introduction).

Jahon iqtisodiyotida raqamli transformatsiya, moliyaviy risklarning murakkablashuvi hamda global noaniqliklarning kuchayishi sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi va to'lov qobiliyatiga nisbatan talablarni keskin oshirmoqda. Iqlim o'zgarishi, tabiiy ofatlar chastotasining ortishi, kibexavflar va makroiqtisodiy beqarorlik sharoitida sug'urta kompaniyalari zimmasiga tushayotgan majburiyatlar hajmi va tavakkalchiligi jadal sur'atlarda kengaymoqda. Natijada sug'urta tashkilotlarining o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish qobiliyati, ya'ni to'lov qobiliyati nafaqat alohida kompaniyalar, balki butun moliya tizimi barqarorligining muhim tayanch omiliga aylanmoqda. So'nggi yillarda xalqaro sug'urta bozorining umumiy hajmi 7 trln AQSh dollaridan oshdi va 2027–2028 yillar oralig'ida bu ko'rsatkich 9,5 trln AQSh dollarini tashkil etishi kutilmoqda. Bu esa sug'urta xizmatlariga bo'lgan global talabning ortib borayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek O'zbekistonda sug'urta bozori jadal rivojlanib borayotgan milliy iqtisodiyotning muhim institutsional bo'g'inlaridan biri sifatida shakllanib, sug'urta tashkilotlari ushbu tizimning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlovchi asosiy moliyaviy institutlar hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotning raqamli transformatsiya bosqichiga o'tishi sharoitida sug'urta bozori oldiga qo'yilayotgan vazifalar tubdan o'zgarib, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi va ayniqsa to'lov qobiliyatini ta'minlash masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy islohotlarning chuqurlashuvi, innovatsion muhitning kengayishi, moliyaviy texnologiyalarning joriy etilishi sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni oshiribgina qolmay, balki sug'urta tashkilotlari zimmasiga yuklanayotgan majburiyatlar hajmi va tavakkalchilik darajasini ham keskin oshirmoqda. «O'zbekiston – 2030»[1] strategiyasida belgilangan inson manfaatlariga yo'naltirilgan rivojlanish modeli, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash, raqamli iqtisodiyot va "yashil" transformatsiya jarayonlari sug'urta tizimidan yuqori darajadagi kapital yetariligi, likvidlik va risklarni qoplash imkoniyatini talab etadi. Iqlim o'zgarishi, tabiiy ofatlar, kibexavflar va makroiqtisodiy beqarorlik sharoitida sug'urta tashkilotlarining to'lov qobiliyatini mustahkamlash nafaqat sug'urta bozorining barqaror ishlashi, balki aholi farovonligini himoya

qilish, investitsion muhitni qo'llab-quvvatlash va milliy moliya tizimining ishonchligini ta'minlashning zaruriy sharti sifatida namoyon bo'lmoqda.

Adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Iqtisodiy adabiyotlarda sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi bo'yicha o'zbek iqtisodchi olimlari va mutaxassislari qator tadqiqot ishlarni amalga oshirgan. Xususan, J.E.Boylening qayd qilishicha, «ko'pincha sug'urta bozorini tuzilmaviy tashkil etish masalalarining nazariy jihatdan ishlab chiqilmaganligi sub'ektlarning manfaati to'qnashuviga olib keladi, ba'zi xorijiy adabiyotlarda sug'urta bozori, sug'urta xizmatlari bozori yoki sug'urta mahsulotlari bozori tushunchalari bilan birga keladi. Sug'urta xizmatlari bozori sug'urtalovchilar yig'indisi emas, balki sug'urta tashkilotlari, mijozlar, davlat nazorat organi va boshqa professional ishtirokchilar yig'indisi yoki majmui hisoblanadi deb ta'kidlash»[2].

Iqtisodchi olim O.Yu.T.Axvlediani sug'urtani takror ishlab chiqarish jarayonida birlashgan ishtirokchilarning birdamligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi. Uning fikriga ko'ra, ishtirokchilar – sug'urtalovchilar soni qancha ko'p bo'lsa, himoyaga ega bo'lish ehtimoli shuncha ishonchli bo'ladi. Bu nuqtai nazar har qanday sug'urta institutiga, sug'urta bozoriga, ayniqsa, jahon qayta sug'urta bozoriga xos sanaladi[3].

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa usullardan foydalanildi. Ushbu maqolada ilmiy abstraksiyalash usuli yordamida sug'urta kompaniyalari moliyaviy holatini baholash va uning nazariy asoslari hamda tashkiliy xuquqiy asoslarini takomillashirishning ilmiy va amaliy ahamiyati keltirib o'tildi. Shuningdek, qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy etgan mamlakatlarda sug'urta tashkilotlari to'lov qobiliyatining nazariy asoslaridan foydalanish usullarining tashkiliy-xuquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab tegishli xulosalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi (Анализ и результаты. Analysis and results).

Sug'urta tashkilotining moliyaviy barqarorligi va to'lov qobiliyati bevosita sug'urta portfelinin sifati bilan bog'liq bo'lib, ushbu sifat har bir

sug'urta turi bo'yicha zararlanish darajasi, operatsion xarajatlar ulushi, risk intensivligi va qayta sug'urtalash orqali qoplanganlik darajasi bilan belgilanadi. Alohida sug'urta yo'nalishlari yuqori mukofot hajmiga ega bo'lishiga qaramasdan, yuqori zararlanish yoki ortiqcha xarajatlar sababli umumiy moliyaviy natijaga salbiy hissa qo'shishi mumkin. Shu sababli, sug'urta portfelini yagona tizim sifatida emas, balki iqtisodiy samaradorlik va risk darajasi bo'yicha farqlanuvchi servis yo'nalishlari majmui sifatida baholash zarurati yuzaga keladi.

Mazkur vazifani hal etish maqsadida sug'urta turlari bo'yicha zararlanish koeffitsienti, operatsion xarajatlar darajasi, risk profili va qayta sug'urtalash imkoniyatlari asosida servis yo'nalishlarining iqtisodiy natijalarini vizual aks ettiruvchi rentabellik xaritasini joriy etish taklif etiladi. Ushbu xarita sug'urta portfelining ichki tuzilmasini ko'p omilli tahlil qilishga imkon berib, har bir sug'urta yo'nalishining to'lov qobiliyatiga qo'shayotgan ijobiy yoki salbiy hissasini aniq ko'rsatib beradi.

Shuningdek rentabellik xaritasini shakllantirish mexanizmi quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi. [4].

Birinci bosqichda sug'urta turlari va servis yo'nalishlari kesimida asosiy ko'rsatkichlar aniqlanadi: zararlanish koeffitsienti, operatsion xarajatlar ulushi, sof moliyaviy natija va risk darajasi.

Ikkinchi bosqichda ushbu ko'rsatkichlar qayta sug'urtalash orqali risklarning qanchalik darajada uzatilganligi bilan to'ldiriladi va har bir yo'nalish bo'yicha integral baho shakllantiriladi.

Uchinchi bosqichda servis yo'nalishlari ikki yoki uch o'lchovli koordinatalar tizimida joylashtirilib, ularning rentabellik va risk nisbatiga ko'ra zonalar ajratilishi amalga oshiriladi.

Mazkur algoritm asosida shakllantirilgan rentabellik xaritasi sug'urta tashkilotiga bir qator amaliy boshqaruv imkoniyatlarini yaratadi. Xususan, yuqori zarar va yuqori risk bilan tavsiflanadigan yo'nalishlar aniqlanib, ular bo'yicha tarif siyosatini qayta ko'rib chiqish, qayta sug'urtalash hajmini oshirish yoki ushbu yo'nalishlarni optimallashtirish imkoniyati yuzaga keladi. Shu bilan birga, barqaror daromad va past risk bilan ajralib turuvchi servis yo'nalishlari aniqlanib, resurslarni aynan shu segmentlarga yo'naltirish orqali to'lov qobiliyatini mustahkamlash mumkin bo'ladi. Shu tariqa, servis yo'nalishlari bo'yicha rentabellik xaritasini joriy etish sug'urta tashkilotlarida to'lov qobiliyatini oshirishga qaratilgan muhim ichki boshqaruv instrumenti sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv sug'urta portfelidagi yashirin risk va zarar manbalarini aniqlash, resurslarni samarali taqsimlash hamda moliyaviy barqarorlikni uzoq muddatli asosda ta'minlash imkonini beradi. Natijada, sug'urta tashkilotining to'lov qobiliyati kapitalni oshirish hisobidan emas, balki risk va rentabellik nisbatini optimallashtirish orqali mustahkamlanadi. [5].



1-rasm. Rentabellik xaritasi¹

Ushbu rasmda keltirilgan "Rentabellik xaritasi mexanizmi" sug'urta tashkilotlarida to'lov qobiliyatini oshirishga qaratilgan amaliy boshqaruv instrumenti sifatida xizmat qiladi. Ushbu xarita sug'urta portfelini faqat umumiy moliyaviy natijalar kesimida emas, balki alohida servis yo'nalishlari (sug'urta turlari) bo'yicha iqtisodiy samaradorlik va risk darajasini kompleks baholash imkonini beradi.

Xaritaning birinchi bosqichida asosiy ko'rsatkichlarni aniqlash orqali har bir sug'urta turi bo'yicha zararlanish koeffitsienti, operatsion xarajatlar ulushi hamda risk darajasi hisobga olinadi. Bu ko'rsatkichlar sug'urta xizmatining moliyaviy yukini ifodalab, qaysi yo'nalishlarda to'lov majburiyatlari yuqori, qaysi segmentlarda esa daromad va risk o'rtasida nomutanosiblik mavjud ekanini aniqlashga xizmat qiladi. Natijada, to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ichki omillar erta bosqichda ochib beriladi. [6].

Ikkinchi bosqichda risklar va qayta sug'urtalash darajasini baholash orqali sug'urta tashkilotining riskni uzatish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Qayta sug'urtalash ulushi yuqori bo'lgan yo'nalishlarda to'lov qobiliyatiga tushadigan bosim nisbatan kamayadi, chunki yirik to'lovlar xavfi tashqi kontragentlar orqali taqsimlanadi. Shu bilan birga, qayta sug'urtalash imkoniyati cheklangan yo'nalishlarda risk konsentratsiyasi saqlanib qolib, kapital va likvidlikka qo'shimcha talab yuzaga keladi. Xarita ushbu farqlarni aniq vizual tarzda ko'rsatib beradi.

Uchinchi bosqichda servis yo'nalishlari ikki yoki uch o'lchamli koordinatalar tizimida joylashtiriladi. Bu yerda risk darajasi va rentabellik o'rtasidagi bog'liqlik ochiq namoyon bo'ladi: yuqori risk – past rentabellik zonasida joylashgan yo'nalishlar to'lov qobiliyati uchun asosiy xavf manbai hisoblanadi, past risk – yuqori rentabellik zonasi esa moliyaviy barqarorlikni qo'llab-quvvatlovchi segmentlarni ifodalaydi. Bunday vizual taqqoslash sug'urta portfelining ichki tuzilmasini strategik nuqtai nazardan qayta ko'rib chiqish imkonini beradi. [7].

To'rtinchi bosqichda rentabellik xaritasi asosida boshqaruv qarorlari shakllantiriladi. Yuqori xavfli va past samarali yo'nalishlarni optimallashtirish, tarif siyosatini qayta ko'rib chiqish, qayta sug'urtalashni kuchaytirish yoki ayrim xizmat turlarini qayta pozitsiyalash orqali to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir etuvchi omillar cheklanadi. Shu bilan birga, yuqori samarali va barqaror yo'nalishlar hissasi oshirilib, sug'urta tashkilotining umumiy portfeli muvozanatlashtiriladi.

Rentabellik xaritasi sug'urta tashkilotlarida to'lov qobiliyatini oshirishga qaratilgan muhim amaliy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. U to'lov qobiliyatini faqat kapital va zaxiralarni yetarligi bilan emas, balki portfel tuzilmasi, servis yo'nalishlari samaradorligi va risklarning ichki taqsimoti bilan bog'liq holda boshqarish imkonini beradi. Paragraf doirasida ishlab chiqilgan ushbu yondashuv sug'urta tashkilotlarida to'lov qobiliyatini strategik asosda mustahkamlash, risklarni maqsadli boshqarish va moliyaviy barqarorlikni uzoq muddatli ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu paragraf doirasida sug'urta tashkilotlarining to'lov qobiliyatini ta'minlashda vaqt omili va portfel tuzilmasini hisobga olgan holda boshqarishning ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi. Majburiyatlarining vaqt bo'yicha zichligi koeffitsienti hamda servis yo'nalishlari bo'yicha rentabellik xaritasini qo'llash sug'urta tashkilotlarida to'lov qobiliyatini statik moliyaviy ko'rsatkichlar bilan cheklamay, uni dinamik va riskka mos holda baholash imkonini yaratadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, likvidlikni zonal boshqarish modeli asosida ishlab chiqilgan mazkur amaliy mexanizm sug'urta tashkilotlarida to'lov qobiliyatini qisqa, o'rta va uzoq muddatli davrlarda barqaror ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu algoritm aktiv-majburiyatlar nomutanosibligini kamaytiradi, likvidlik xavfini boshqarishni tizimli asosga o'tkazadi va milliy sug'urta amaliyotida moliyaviy barqarorlikni oshirishning samarali instrumenti sifatida qo'llanilishi mumkin.



2-rasm. Zonal likvidlik koeffitsientlari²

Ushbu algoritm sug'urta tashkilotlarida likvidlikni boshqarishda majburiyatlarining to'lov muddatlari va risk darajasini hisobga olgan holda zonal yondashuvni qo'llashga asoslanadi. Majburiyatlar tez to'lanuvchi, ehtimoliy va uzoq muddatli zonalar ajratilib, har bir zona uchun likvidlik xususiyatiga mos aktiv portfeli shakllantiriladi. Zonal likvidlik koeffitsientlari orqali har bir segment bo'yicha to'lov qobiliyati baholanadi hamda integral ko'rsatkich hisoblanadi. Algoritm aktiv va majburiyatlar o'rtasidagi nomutanosiblikni kamaytirish, likvidlik xavfini boshqarish va sug'urta tashkilotining moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Zonal boshqarish modelida har bir zona bo'yicha likvidlik koeffitsientlarini aniq me'yoriy chegaralarda ushlab turish muhim hisoblanadi. Amaliyotda tez to'lanuvchi majburiyatlar zonasi uchun likvidlik koeffitsientining 1 dan kam bo'lmasligi talab etiladi, chunki ushbu zona bo'yicha to'lov kechikishi sug'urta tashkilotining obro'si va moliyaviy barqarorligiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ehtimoliy va uzoq muddatli zonalar uchun esa nisbatan past, biroq barqaror koeffitsientlar maqbul hisoblanadi.

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqildi

² Muallif tomonidan ishlab chiqildi

Mazkur me'yoriy yondashuv sug'urta tashkilotlariga likvidlikni samarali rejalashtirish, regulyator talablariga moslashish va aktivlardan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar (Заключение. Conclusion).

Sug'urta tashkilotlarining to'lov qobiliyatini ta'minlash masalasi moliyaviy barqarorlikni baholashning markaziy yo'nalishlaridan biri hisoblanib, uni faqat statik balans ko'rsatkichlari orqali baholash real risklarni to'liq aks ettirmasligi ilmiy jihatdan asoslandi. To'lov qobiliyati aktivlar hajmi bilan emas, balki majburiyatlarning qay vaqtda va qanday hajmda yuzaga kelishi bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rsatildi.

1. Sug'urta tashkilotlarida to'lov qobiliyatini baholashni faqat statik balans ko'rsatkichlari bilan cheklash real risklarni to'liq ochib bermaydi. Majburiyatlarning vaqt bo'yicha noteng taqsimlanishi va to'lov piklari likvidlik bosimini kuchaytiradi. Shuning uchun to'lov qobiliyatini vaqt omili bilan bog'liq dinamik jarayon sifatida baholash metodologik jihatdan asoslandi.

2. To'lov qobiliyatiga ta'sir etuvchi asosiy ichki omillar sifatida majburiyatlarning oylik to'planish darajasi, to'lov piklarining davriyligi va to'lov talablarining vaqt bo'yicha siljishi ilmiy jihatdan ochib berildi. Bu omillar hisobga olinmagan sharoitda aktivlar yetarli bo'lsa ham qisqa davrlarda to'lov uzilishlari yuzaga kelishi mumkinligi asoslandi. Natijada likvidlik risklarini erta aniqlash zarurati kuchaytirildi.

3. Majburiyatlarning vaqt bo'yicha zichligi koeffitsientini joriy etish taklifi sug'urta tashkilotlarida to'lov qobiliyatini baholashni yangi sifat bosqichiga olib chiqishi ko'rsatildi. Ushbu koeffitsient majburiyatlarning vaqtda konsratsiyalashuvini aniqlab, xavfli davrlarni oldindan belgilashga xizmat qiladi. Natijada likvid aktivlarni maqsadli

rejalashtirish va proaktiv boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati yaratildi.

4. Sug'urta portfeli tuzilmasini chuqur tahlil qilish uchun servis yo'nalishlari bo'yicha "rentabellik xaritasi" mexanizmini joriy etish taklifi asoslandi. Ushbu yondashuv har bir sug'urta turining zararlanish, xarajat va risk profilini vizual baholab, to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir etuvchi ichki nomutanosibliklarni aniqlashga yordam beradi. Natijada resurslarni yuqori samarali segmentlarga yo'naltirish orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash imkoni paydo bo'ldi.

5. Likvidlikni zonal boshqarish modeli asosida majburiyatlarni tez to'lanuvchi, ehtimoliy va uzoq muddatli zonalarga ajratish hamda har bir zona uchun mos aktiv portfelini shakllantirishning ilmiy-amaliy afzalligi ko'rsatildi. Zonal likvidlik koeffitsientlari va integral to'lov qobiliyati ko'rsatkichi orqali aktiv-majburiyatlar muvofiqligi oshirilishi asoslandi. Bu yondashuv likvidlik xavfini kamaytirish bilan birga investitsion samaradorlikni optimallashtirishga xizmat qiladi.

6. To'lov xavfi intensivligini avtomatik baholashga asoslangan dinamik segmentatsiya tizimini joriy etish sug'urta tashkilotlarida to'lov qobiliyatini preventiv boshqarishga o'tkazishi isbotlandi. Elektron ma'lumotlar bazasi, analitik hisoblash va avtomatik monitoring modullari orqali xavfli segmentlar o'z vaqtida aniqlanadi va boshqaruv qarorlari tezlashadi. Natijada to'lov qobiliyatini uzoq muddatli ta'minlash hamda milliy sug'urta bozorida raqobatbardoshlikni oshirish uchun mustahkam amaliy asos yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-sonli «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risidagi Farmoni.
2. Boyle, E., Sasha, P., Petar J. & Dragan B. Peer-to-Peer Insurance: Blockchain Implications [Elektron resurs].
3. Ахведиани Ю.Т. Некоторые аспекты страхования предпринимательских рисков в России. // Страховое дело, 2006. № 4. С. 38.
4. Nurmuratov M. "Narxlar va moliyaviy tizim barqarorligi". - Bankers.uz.
5. "APEX INSURANCE" AJ ning yillik hisobot ma'lumotlari.
6. "O'zbekinvest" EISK AJ ning yillik hisobot ma'lumotlari.
7. Eshonqulov Azamat Abdiraximovich. (2024). Konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobotlarning farqli jihatlari. Insurance market of Uzbekistan, 1(11), 4–7. retrieved from <https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/209>